O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

SO‘X TOPONIMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

LINGUOCULTURAL FEATURES OF SOKH TOPONYMS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/QJFZ3875

Abbozov Oxunjon Qayumjonovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Farg‘ona davlat universiteti, Tilshunoslik kafedrasi dotsenti,
elektron manzil: oabbozov2020@gmail.com
ORCID raqami 0009-0003-4508-4826

Annotation. *This article examines the linguocultural characteristics of the toponyms of Sokh district, one of the historically and linguistically distinctive areas of the Fergana Valley. Toponyms are analyzed not only as geographical names, but also as linguistic and cultural units reflecting the historical memory, ethnic composition, natural environment, economic activities, worldview and cultural values of the local population. The study focuses on the structural-semantic and linguocultural features of selected toponyms such as Sokh, Obishir, Selungur, Devayron, Karkidon and other geographical names. The analysis demonstrates that the toponymic system of Sokh preserves information about different historical periods, ethnic and linguistic contacts, traditional occupations and the relationship between the population and the natural environment. The article argues that the preservation, scientific study and digital documentation of such toponyms are important for strengthening the national linguistic heritage and increasing the international scholarly recognition of the Uzbek language and its cultural potential.*

Keywords: *toponym, linguoculture, Sokh, historical memory, ethnoculture, linguistic heritage, Uzbek language.*

Bugungi jadal globallashuv davrida milliy tillarning nufuzi va barqarorligi faqat ularning davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi yoki so‘zlovchilarining miqdoriy ko‘rsatkichi bilan emas, balki shu tillarda mujassamlashgan asriy tarixiy, madaniy va ma’naviy merosning akademik darajada tadqiq etilishi, tizimli saqlanishi hamda xalqaro ilmiy makonga integratsiya qilinishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tili leksikasining alohida va muhim qatlami

bo‘lmish toponimik tizimni o‘rganish ustuvor ilmiy ahamiyat kasb etadi. Geografik obyekt nomlari shunchaki ob’ektiv borliqni ajratib ko‘rsatuvchi nominativ birliklar bo‘lib qolmay, xalqning o‘tmish xotirasi, makon va hududni anglash darajasi, etnik tarkibi, xo‘jalik yuritish an’analari va madaniy tajribasini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos lingvomadaniy kodlardir.

S. Qorayev toponimlar shakllanishini insonning atrof-muhitni farqlash va nominatsiya qilishga bo‘lgan ijtimoiy-lingvistik ehtiyoji bilan bog‘laydi. Olimning ta’kidlashicha, dastlabki geografik nomlar sodda turdosh otlar zaminida yuzaga kelgan bo‘lsa, jamiyat va til taraqqiyoti, shuningdek, obyektlarni differensiasiyalash zarurati natijasida murakkab semantik va grammatik strukturaga ega toponimlar shakllangan [Qorayev, 2006: 5-6]. Binobarin, toponimlar genezisi va evolyutsiyasi tilning ichki qonuniyatlari bilan birga jamiyatning tarixiy-etnomadaniy taraqqiyoti bilan ham uzviy aloqadorlikda kechadi.

Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos tarixiy-geografik hamda etnolingvistik areali bo‘lmish So‘x tumani toponimiyasi ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli tadqiqot manbai hisoblanadi. So‘x vohasi o‘zining baland tog‘li landshafti, qadimiy aholi manzilgohlari, rivojlangan gidrogratik tarmog‘i (daryo, soy, buloqlar), yaylovlari va arxeologik yodgorliklari bilan ajralib turadi. Voha geografik nomlarida turkiy va fors-tojik tillari qatlamlarining o‘zaro ta’siri, mahalliy orografik va gidrologik sharoitlar, urug‘-qabila tizimi hamda an’anaviy turmush tarzi o‘zining yaqqol ifodasini topgan.

Toponimning birlamchi va asosiy funksiyasi muayyan geografik obyektni identifikatsiyalash hamda uni boshqalardan ajratishdan iboratdir. Biroq uning semantik sig‘imi ushbu denotativ-nominativ vazifa bilan cheklanmaydi. Har bir geografik nom muayyan tarixiy davr, etnik substrat va superstratlar, xo‘jalik faoliyati turi, landshaft xususiyati yoki ijtimoiy-tarixiy voqelik natijasida yuzaga keladi. Shunga ko‘ra, toponimik tahlilda nomning etimologik va leksik-grammatik ma’nosi bilan bir qatorda, uning derivatsion motivi va madaniy semantikasini ham har tomonlama e’tiborga olish lozim.

N. Oxunov toponimlarning nominatsion xususiyatlarini tadqiq etar ekan, joy nomlarining shakllanishida tabiiy-geografik omillardan tashqari etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy omillarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi [Oxunov, 1989: 8-12]. S. Qorayev esa O‘zbekiston toponimik tizimini o‘rganishda yozma manbalar, dialektal ma’lumotlar, folklor materiallari va landshaft xususiyatlarini

kompleks yondashuv asosida tahlil qilish zarurligini uqtiradi [Qorayev, 2006: 14-18].

Lingvomadaniy yondashuv toponimning ichki mazmuniy qatlamlarini ochishda yangi ilmiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunda geografik nom faqatgina lingvistik birlik emas, balki etnosning borliqni konseptuallashtirish usulini aks ettiruvchi madaniy kod sifatida qaraladi. Xususan, toponimik birliklarda rang, suv, tog‘, o‘simlik va hayvonot olami, etnonimlar, kasb-hunar, mifologik va diniy tasavvurlar hamda tarixiy shaxslar bilan bog‘liq lingvokognitiv konseptlar o‘z aksini topadi.

Aynan shu nuqtayi nazardan, So‘x tumani toponimiyasi Farg‘ona vodiysi tarixini, uning etnolingvistik hamda madaniy qatlamlarini o‘rganishda muhim lingvokulturologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

“So‘x” oykonimi va gidronimi hududning eng qadimiy va o‘zak toponimlaridan biridir. Mazkur nom ilk va o‘rta asr yozma manbalarida faqat geografik emas, balki strategik va ma’muriy hudud sifatida qayd etib o‘tilgan. Xususan, X asrga oid “Hudud ul-olam” asarida So‘x Farg‘ona viloyatining tog‘lar orasida joylashgan va tabiiy istehkomga ega maskanlaridan biri sifatida tilga olinadi. Zahriddin Muhammad Bobur ham o‘zining “Boburnoma” asarida So‘xni Farg‘ona viloyatining tog‘li viloyat-nohiyalaridan biri, strategik ahamiyatga ega maskan sifatida alohida ta’riflaydi. Ushbu manbalar toponimning qadimiy genezisga ega ekanligidan va uning barqaror ishlatilib kelinganidan dalolat beradi.

S. Qorayev “Toponimika” asarida “Hudud ul-olam”dagi ma’lumotlarga tayanib, “So‘x – tog‘lar orasidagi joy” tarzidagi lingvo-geografik izohni keltirib o‘tadi [Qorayev, 2006: 38]. Mazkur manbalardagi ma’lumot toponimning dastlabki yuzaga kelish motivatsiyasi bevosita landshaftning orografik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

So‘x toponimining etimologiyasi hamon munozarali masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Toponimning qadimiyligi va substrat xarakterini e’tiborga olib, uni faqat zamonaviy o‘zbek tili leksikasi doirasida izohlash metodologik jihatdan yetarli emas. Toponimiyadagi bunday qadimiy birliklarni tahlil qilishda ularning qadimgi eroniy (xususan, sog‘d, baqtriya yoki qadimgi eroniy dialektal qatlamlar) va turkiy lisoniy qatlamlar bilan aloqasi, shuningdek, areal toponimika qonuniyatlari birgalikda o‘rganilishi lozim.

So‘x toponimining lingvomadaniy qiymati, eng avvalo, uning hudud hamda etnos o‘zligini aks ettiruvchi vosita sifatidagi vazifasida namoyon bo‘ladi. Ushbu

nom asrlar davomida muayyan hudud va unda yashovchi aholining tarixiy-madaniy o‘zlikni anglash omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘x tumani toponimik tizimining salmoqli qismini tabiiy-geografik toponimlar tashkil etadi. Tog‘, daryo, soy, buloq, g‘or, adir va tepaliklarga berilgan nomlar hududning orografik hamda gidrologik xaritasini aks ettirish bilan birga, mahalliy aholining makonni kognitiv idrok etish usullarini ko‘rsatadi.

Masalan, “***Obishir***” toponimi tarkibidagi “***ob***” komponenti (fors-tojikcha: ***ob*** **– suv**) gidronimik indikator bo‘lib, toponimning suv obyekti bilan bog‘liq genezisidan dalolat beradi. Toponimda suv omilining yetakchilik qilishi ushbu tog‘li va qurg‘oqchil hududda gidrologik resurslarning inson hayoti hamda dehqonchilik-chorvachilik faoliyatidagi hal qiluvchi o‘rnini lingvomadaniy jihatdan ko‘rsatib beradi.

So‘x toponimiyasida, shuningdek, tarkibida ***“soy”, “buloq”, “ariq”, “suv”*** kabi gidroformantlar hamda ***“tepa”, “tog‘”, “qir”, “darra”*** kabi oroformantlar bo‘lgan nomlar faolligi kuzatiladi. Mintaqa toponimiyasida ushbu topoformantlarning birikuvchanlik imkoniyati yuqori bo‘lib, murakkab va qo‘shma toponimlarni hosil qilishda yetakchi o‘rin tutadi [Qorayev, 2006: 85-90].

So‘xning murakkab relyefga ega tog‘li hudud ekanligi oronimlarning miqdoriy va semantik rang-barangligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Oronimlarni nomlanishida obyektning vizual va fazoviy belgilari – balandligi, shakli, rangi, joylashuv o‘rni (***Devayron, Unbara, Qal’a, Oqtepa*** va b.) yetakchi derivatsion motiv vazifasini bajaradi. Bunday nomlar geografik borliqni xalqona tasniflash va makonni nomlashning lingvistik modellarini namoyon etadi.

So‘x toponimik tizimining muhim qatlamini qadimiy inson manzilgohlari va arxeologik obyektlar nomlari tashkil etadi. Bu nomlar o‘zida hududning bir necha ming yillik tarixiy va antropologik xotirasini saqlab kelmoqda. Xususan, Selungur g‘or-makoni va unga bag‘ishlangan toponimik birliklar nafaqat mintaqaviy, balki jahon arxeologiyasi hamda paleolit davri bo‘yicha muhim ilmiy obyektlardan biridir.

“***Selungur***” toponimi bugungi ilmiy va ommaviy diskursda hududning eng qadimiy tarixdan darak beruvchi lingvo-arxeologik ramzga aylangan. Mazkur toponim bilan bog‘liq arxeologik topilmalar So‘x vohasi ilk insoniyat sivilizatsiyasi shakllangan qadimiy maskanlardan biri bo‘lganini isbotlaydi. Shu ma’noda, toponim oddiy geografik nom chegarasidan chiqib, hududning tarixiy-madaniy timsoli hamda hududiy o‘zlikning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Xuddi shuningdek, ***Obishir*** yodgorliklar majmuasi va u bilan bog‘liq mikrotoponimlar ham mintaqaning mezolit va neolit davri madaniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Obishir toponimi bir vaqtning o‘zida ham gidronimik, ham arxeologik, ham etnomadaniy mazmunga ega bo‘lib, u lingvistika, arxeologiya, etnologiya hamda antropologiya fanlarining kesishish nuqtasida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan murakkab lingvokulturolemadir.

Toponimik tizim shakllanishida etnik va etnolingvistik omillar doimiy yetakchi o‘rin tutib kelgan. O‘zbek toponimiyasida urug‘, qabila, etnos yoki urug‘-aymoq shajarasi asosida shakllangan etnotoponimlar alohida tizimni tashkil etadi [Qorayev, 2006: 82-87].

So‘x vohasi tarixan turli etnolingvistik jamoalarning tutashgan, doimiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatda bo‘lgan o‘zaro ta’sir hamda muloqot maskanidan biri hisoblanadi. Shu sababli, mahalliy toponimik materiallarda turkiy hamda fors-tojik tillariga mansub leksik va morfologik birliklarning o‘zaro bilingvistik ta’siri va sintezlashuvi kuzatiladi. Ushbu holatni shunchaki lingvistik “aralashuv” deb emas, balki asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan xalqlarning hududiy, iqtisodiy va etnomadaniy integratsiyasining lisoniy in’ikosi sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ridir.

Bundan tashqari, toponimlar tarkibidagi ayrim komponentlar va mikrotoponimlar mahalliy aholining an’anaviy chorvachilik, hunarmandchilik hamda dehqonchilik madaniyati, shuningdek, tarixiy migratsiya jarayonlari haqida muhim etno-lingvistik ma’lumotlarni beradi. Shu sababli So‘x toponimiyasini etnolingvistik va lingvokulturologik aspektda tadqiq etish voha tarixining noma’lum sahifalarini tiklashda qo‘shimcha obyektiv manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jadal globallashuv, urbanizatsiya hamda axborotlashuv jarayonlari almashinuvi va tendensiyalari sharoitida tarixiy toponimlarni muhofaza qilish hamda ularning asliyatini saqlab qolish o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Geografik nomlarning asossiz ravishda o‘zgartirilishi yoki yo‘qolishi shunchaki xaritadagi nomning almashishi emas, balki o‘sha nom ortidagi tarixiy xotira, madaniy semantika hamda lingvistik merosning muayyan qismi yo‘qolishini anglatadi.

E. Begmatov va N. Oxunov toponimlarni xalqning ko‘p asrlik tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yaxlit holda aks ettiruvchi qimmatli lisoniy va ma’naviy obida sifatida baholaydilar [Begmatov, Oxunov, 2000-2005: 501-502]. Shundan kelib chiqqan holda, tarixiy toponimlarni tizimlashtirish, ularning sheva

va tarixiy ko‘rinishlarini aniq hujjatlashtirish, etimologik lug‘atlarini tuzish va elektron toponimik bazalarni yaratish o‘zbek tilining milliy merosini asrashning amaliy yo‘nalishlaridan biridir.

So‘x toponimiyasi ham ana shunday ilmiy va muhofaza qilishga qaratilgan yondashuvga muhtoj. Ayniqsa, hududdagi mikrotoponimlar – kichik soylar, buloqlar, tepaliklar, yaylovlar, mahalliy yer-suv nomlari va g‘orlar asosan keksa avlod vakillarining og‘zaki xotirasida saqlanib qolmoqda. Ushbu mikrotoponimlar o‘z vaqtida ilmiy ekspeditsiyalar davomida yozib olinmasa va raqamlashtirilmasa, ularning tabiiy yo‘qolib ketish xavfi ortadi.

Shu munosabat bilan, So‘x tumani toponimiyasini raqamlashtirish, geoinformatsion tizimlar (GIS) bilan integratsiya qilish, lokal talaffuz variantlarini transkripsiyalash hamda ochiq elektron toponimik korpus va atlaslarini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

O‘zbek tilining global ilmiy makondagi o‘rnini mustahkamlash hamda uning nufuzini oshirish uchun nafaqat uning umumiy leksik va grammatik tizimini, balki uning milliy-madaniy xususiyatga ega birliklarini, xususan, toponimiyasini xalqaro ilmiy hamjamiyatga taqdim etish lozim. Toponimlar bu borada eng universal va axborotga boy lisoniy manbalardan biridir.

So‘x toponimlarini ingliz va boshqa xalqaro tillarga chuqur ilmiy sharhlar va akadem transkripsiyalar bilan tarjima qilish orqali O‘zbekistonning tarixiy-geografik, arxeologik hamda etnomadaniy salohiyatini dunyo olimlariga obyektiv yetkazish mumkin. Bunda toponimning shunchaki transliteratsiyasini berish yetarli bo‘lmay, uning etimologiyasi, nomlanish motivatsiyasi, geografik koordinatalari va madaniy konteksti kompleks holda yoritilishi zarur.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda korpus lingvistikasi imkoniyatlari ushbu jarayonni tezlashtiradi. Raqamli xaritalar, elektron lug‘atlar va sun’iy intellektga asoslangan toponimik ma’lumotlar bazalarini yaratish orqali o‘zbek toponimlarining xalqaro ilmiy-kommunikativ maydondagi foydalanish ko‘lamini sezilarli darajada kengaytirish mumkin.

So‘x tumani toponimlari o‘zbek tilining tarixiy-lisoniy va lingvomadaniy boyligini, shuningdek, voha xalqining ko‘p asrlik madaniy tajribasini namoyon etuvchi muhim ilmiy manbalardan biridir. Mazkur toponimik tizimda hududning tabiiy-geografik landshafti, qadimiy arxeologik substratlar, etnik va lisoniy kontaktlar, an’anaviy xo‘jalik turlari hamda mahalliy aholining makonni idrok etish xususiyatlari yaqqol mujassamlashgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, So‘x toponimiyasini faqatgina an’anaviy struktural yoki etimologik tamoyillar bilan cheklanmasdan, ularni lingvomadaniy, etnologiya, arxeologiya va geografiya fanlari tutashuvida kompleks o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, “So‘x”, “Obishir”, “Selungur” kabi kalit toponimlar hududning ko‘p qatlamli tarixiy-madaniy xotirasini tashuvchi muhim lingvistik birliklar sifatida alohida akademik qiymatga ega.

So‘x toponimiyasini raqamlashtirish, ularning variantlarini yagona geoinformatsion (GIS) bazasiga kiritish, lokal mikrotoponimlarni dala-tadqiqot ekspeditsiyalari orqali xatlovdan o‘tkazish hamda ularning izohli-etimologik lug‘atlarini yaratish o‘zbek tilining milliy-madaniy merosini asrashga muqarrar xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu ilmiy izlanishlar natijalarini xorijiy tillarda chop etish o‘zbek toponimik merosini jahon ilmiy jamoatchiligiga olib chiqish hamda davlat tilining xalqaro nufuzini va global akademik jozibadorligini oshirishning samarali omillaridan biriga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1.Begmatov E., Oxunov N. “Toponimika”. // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000 – 2005.

2.Qorayev S. “Toponimika”. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.

3.Oxunov N. “Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari”. – Toshkent: Fan, 1989. – 52 b.

4.Nafasov T. “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 288 b.

5.Rahmatullayev Sh. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”. – Toshkent: Universitet, 2000.

6.“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 jildlik. 1-jild. A–D. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**